

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

TALABALARDA GENDER TENGLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Allayarova Noila Yaxshinorovna

Ish joyi: Tashkent Davlat Texnika Universiteti

lavozimi: assistent

Annotasiya:

maqola fuqarolarda gender tenglik tafakkurini shakllantirish muammosining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jihatlari, gender tenglik psixologiyasi va pedagogikasi masalalari, OTM ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning psixologik-pedagogik va texnologik asoslariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, demokratiya, huquqiy davlat, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-falsafiy, ekvivalentlik (muvofiglik) va farqlanish darajasi, hissiy barqarorlik, ochiqlik, xayrixohlik, hamkorlik, kommunikativ kompetentlik, dialogik muloqot

Adabiyotlarda “gender tenglik” - inson va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, uning taraqqiyotini oshiruvchi; modernizasiyaning zaruriy tarkibiy qismi, demokratiya, huquqiy davlat, bozor iqtisodiyotining madaniy tarkibiy qismi, deb talqin etiladi.

Fuqarolarda gender tenglik tafakkurini shakllantirish muammosining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jihatlari V.A.Lektorskiy, M.P.Mchedlov, M.Uolser; gender tenglik psixologiyasi va pedagogikasi masalalari A.G.Asmolov, E.Yu.Klepssova, B.E.Rierdon; OTM ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning psixologik-pedagogik va texnologik asoslari A.A.Verbiskiy, R.M.Medetova, Yu.N.Kulyutkin, A.P.Panfilova tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanab o'tilgan tadqiqotlar, shubhasiz, yoshlarda gender tenglik tafakkurini shakllantirish muammosini hal qilishga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Biroq ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning gender tenglik tafakkurini shakllantirish muammosi fanda etarlicha yoritilmagan.

Gender tenglik - murakkab hodisa, uni turli: falsafiy, madaniyatshunoslikka oid, sosiologik, siyosatshunoslikka oid, shuningdek, pedagogik-psixologik nuqtai nazardan o'rganish mumkin.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Yoshlarda gender tenglik tafakkurini o'stirish tushunchasi xx asrning o'rtalaridan shakllanib, hozirda bu jarayon rivojlanishda davom etib, turli mazmun kasb etmoqda, voqelikka muvofiq bo'lishga intilmoqda.

Hozirda mazkur tushunchaning, jumladan ham psixologik, ham falsafiy adabiyotlarda ko'plab talqinlari mavjud: olamga munosabatning faol shakli, organizmning moslashuvga oid funksiyasi, ekvivalentlik (muvofiglik) va farqlanish darajasi, hissiy barqarorlik va shu kabilar.

Gender tenglik tafakkurini, birinchidan, tafakkurning ma'lum falsafasini qadriyat sifatida egallash; ikkinchidan, gender ong madaniyati; uchinchidan, real xulq-atvorda gavdalanadigan tegishli voqelikka munosabat sifatida qarash mumkin.

Gender tenglik hodisasini o'rganishga ko'p o'lchamli yondashuv o'rganilayotgan hodisaning integrativ, ko'p komponentli va ko'p qirrali muammo sifatidagi murakkabligi bilan belgilanadi. Tushunchaning bu kabi tushunilishi yuqorida tilga olingan o'zaro bir-birini to'ldiradigan jihatlarga asoslangan: gender tenglik deganda shaxsning gumanistik yo'nalganligining tarkibiy qismi hisoblanadigan va uning xar hil jinsli insonlarga nisbatan qadriyatli munosabati bilan belgilanadigan sifati tushunilishi kerak. U insonning shaxsiy xatti-harakatida namoyon bo'ladigan munosabatlarning ma'lum tipiga ustanovkasini namoyish etadi.

Gender tenglik qarama-qarshi tomonning o'zaro hamkorlikdan maqsadi, motivasiyalari va nuqtai nazarlarini aniqlashtirishga olib keladigan tushunish, hamkechinmalikka asoslanadi. O'zga jinsli insonning fikrlari, qarashlari, xulq-atvor tarzini ma'qullamaslik nizoga olib kelmaydi, balki uning fikri berilganlik, ob'ektiv mavjud reallik sifatida mavjudligi, bunda ichki xotirjamlik, o'z-o'ziga hurmat, erkinlikning saqlanishini nazarda tutadi.

Gender tenglik muruvvat, soxtakorlik, yon berish, tanqid dan voz kechishni nazarda tutmaydi, balki kelishish nuqtalarini faol izlash va tanlov imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak mutaxassis uchun gender tenglik uning kasbiy va kasbidan tashqari faoliyatini boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Gender tenglik tuzilmasida kommunikativ va xulq-atvor komponentlarining mavjudligi o'zga jinsli insonni tushunish va o'zining tushunganini ifodalashning maxsus usullariga o'rgatish orqali gender tenglik tafakkurini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim qiladi. Gender tenglikni ifodalashning tashqi usullarini o'zlashtirish jarayon qatnashchilarining o'zining chuqur shaxsiy transformasiyalarini ishga soladigan kuchli vosita bo'lib chiqadi. Gender tenglik o'zaro hamkorlik usullarini

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

o'zlashtirish pirovardida, xar hil jinsli shaxslarning qadriyatlarni shaxsiy o'zlashtirishlariga olib keladi.

Gender tenglik mohiyatiga oid tavsiflari, tuzilmasi va funksiyalariga tayanib, uning xulq-atvorga oid, kommunikativ, mental mezonlari aniqlandi. xulq-atvorga oid va kommunikativ mezonlar, ishimiz mantiqiga ko'ra, gender tenglik faoliyatli belgisiga (hissiy barqarorlik, ochiqlik, xayrixohlik, hamkorlik, kommunikativ kompetentlik, dialogik muloqotga qodirlik va sh.k.) muvofiq keladi.

Xulq-atvorga oid mezonlar inson talablar va kutilganlariga mos kelmagan vaziyatlarda uni qabul qilish va toqat darajasini aks ettiradi, muayyan xulq-atvorni tavsiflaydi. xulq-atvor shaxsiy-axloqiy maqsadlarni ongli belgilashni o'z ichiga olmagani (ya'ni reaktiv bo'lgani) sababli u axloqiy, umuman, ijtimoiy me'yordarga moslashuvchan xarakter kasb etishi mumkin.

Kommunikativ mezonlar (verbal va noverbal) kommunikativ kompetentlik mavjudligini nazarda tutadiki, u qabul qilingan me'yor va qoidalar oqimida amalga oshiriladi. Bu mezon nafaqat kommunikasiya (muloqot) ning verbal va noverbal tomonlari, balki xulq-atvorga oid tomonini ham o'z ichiga oladi. Kommunikativ jihat oson tashxislanadi va pedagogik ta'sirga moyil. Uni amalga oshirish gender tenglikni rivojlantirishning tobora qulay va pedagogik jihatdan amalga oshiriladigan yo'lidir.

Mental mezon shaxsning qadriyatli yo'nalghanliklari tizimini (empatiya, refleksiya, avtonomlik, insonparvarlik va sh.k.) ask ettiradi, shaxsning chuqur jarayonlari: qaror qabul qilishda faollik, refleksiya, o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini tavsiflaydi; u yoki bu vaziyatda faoliyat usullarini adekvat tanlashda namoyon bo'ladi.

Gender tenglik hodisasini o'rganish zarurati o'rganilayotgan yosh davrining (17-21 yosh) pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. O'z hayotining muhim bosqichiga qadam qo'yayotib, nafaqat ijtimoiy rollarning almashinishi, mas'uliyat, mustaqillik va oliy ta'lim muassasasi tomonidan qo'yiladigan talablarning ortishi, balki yangicha munosabatlar, kursdoshlari bilan o'zaro hamkorlikka duch kelgan 1- va 2-kurs talabalari alohida qiyinchiliklarni his qiladi, ularda ijtimoiy-psixologik moslashish ro'y beradi. Bu jarayonning mohiyati moslashayotgan shaxs bilan yangi ijtimoiy muhit o'rtasida dinamik muvozanat o'rnatilishi, qadriyatli yo'nalghanliklar, ustakovkalar, hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi kutishlar va talablarda muvofiqlik, shuningdek, shaxslararo munosabatlardagi turli muammoli vaziyatlardan iborat bo'ladi.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Zamonaviy talabaning umumlashma ijtimoiy qiyofasi (portreti) va statistik ma'lumotlar dalolat beradiki, yangi jamoaga kelgan talabalarda ko'p hollarda shaxslararo munosabatlar o'rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, natijada, talaba me'yor va qadriyatlari tushunarsiz va yot tuyulganlarga nisbatan dushmanlik va tajovuzkorlikni namoyon qilishi mumkin. Ayni vaqtida talabalik yosh davrida muloqotga ehtiyoj etakchi hisoblanadi, uni realizasiyalash ijtimoiylashishning muvaffaqiyatliligiga ta'sir ko'rsatadi (A.Maslou, G.Olport va boshq.). Hozirgi kunda ta'lim va rivojlanish natijasi sifatida insonning tayanch qobiliyatları (ehtiyojlari) sirasiga hamdardlik va hamkechinmalik, boshqa insonni tinglash va eshita bilish qobiliyati kiritiladi (A.M.Lobok).

Falsafa, etika, psixologiyada ajratilgan yoshlar o'rtasida gender tenglikni o'rnatish muammosi masala echimining metodologik asosi hisoblanadi va ta'lim jarayonida quyidagi yondashuvlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: aksiologik yondashuv ta'lim mazmuni, vositalari, ish uslublari va shakllarini belgilaydi. Bu yondashuv shaxsda gender tenglik tafakkurini rivojlantirish, shu tizimdagi qadriyatlarini anglash, tan olish, dolzarblashtirish va yaratishga yo'nalganligini belgilaydi. Shaxsiy va faoliyatli yondashuvlar gender tenglik asosidagi o'zaro hamkorlik strategiyalaridan foydalanish, faoliyat sub'ektlari manfaatlari muvozanatini hisobga olish va rioya qilishni belgilaydi, ma'lum ijtimoiy kontekstda, ijobiy hissiy-motivasiyalı fon yaratadigan, predmetli-amaliy faoliyatni tashkil qilishni nazarda tutadi.

Ko'rsatilgan yondashuvlar zamonaviy oliy kasbiy ta'limga asoslanadigan va gender tenglik asosidagi u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan prinsiplar negizida realizasiyalanadi. Tadqiqotimiz uchun ta'lim, jumladan, kasbiy ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari (A.S.Zapesoskiy, V.P. Zinchenko, Yu.V.Sen'ko, V.V.Serikov) prinsipial ahamiyat kasb etadi, uni esa "o'qituvchi-talaba" muhiti, munosabatlar uslubini tubdan yangilash sifatida tushunish kerak bo'ladi. Gumanitar tarkibiy qism, A.S.Zapesoskiyning fikricha, dunyoning manzarasi, qadriyatli yo'nalganlik va axloqiy prinsiplar, inson miyasining rivojlanishi bo'lib, u o'z kasbida yuksak cho'qqilarni zabt etish imkonini beradi. Tadqiqotimiz uchun bu konsepsiya alohida ahamiyatli, chunki shaxsning gumanistik yo'nalganligi, oliy ta'lim muassasasida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi jarayonida o'zaro hamkorlikning faol shakllari vositasida insonga qadriyatli munosabat bilan bog'liq gender tenglik tafakkurini rivojlantirish masalasi ko'rilmoxda.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Yuqorida tilga olingan ikki yondashuv nuqtai nazaridan gender tenglik axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda dialog prinsipi sifatida etakchi hisoblanadi.

Dialog ijtimoiy o'zaro hamkorlikning unda ishtirok etayotgan tomonlarning tengligi va erkinligiga asoslangan, qarashlarni oydinlashtirish, yaqinlashtirish va o'zaro boyitishga yo'naltirilgan o'ziga xos shakli sifatida qaraladi. Dialogni boshqacha, "tashqaridalik" (M.M.Baxtin), "tinglash-eshitish" (A.U.xarash), "suhbatdoshdagi dominanta" (A.A.Uxtomskiy), "boshqada dominantlik" (Yu.V.Sen'ko), "ma'naviy individuallik keltirib chiqargan ijodiy akt" (V.Gumboldt) sifatida chuqur tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Dialog ijtimoiy tabiatga ega, u insonning muloqot, hamkorlik, o'zaro ta'sir, birgalikdagi ijodga bo'lgan fundamental ehtiyojini ta'minlaydi.

Gender tenglik tafakkurini rivojlantirish tuzilmasida bo'lgani kabi dialogik o'zaro hamkorlik tuzilmasida ham hissiy va kognitiv komponentlar ustuvorlik qiladi, ularni yuqori darajadagi empatiya, boshqalarni idrok qilishda stereotiplikning yo'qligi, fikrlash nozikligi, o'zining individualligini ko'ra bilish, o'z shaxsini va o'zga jinsli shaxsning qadriyatlar tizimini adekvat baholay olish orqali tavsiflash mumkin. Shu sababli dialogik o'zaro hamkorlik gender tenglikning metodologik asosi sifatida qaralishi mumkin. Etakchi metodologik asoslar sifatida aksiologik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvga tayangan holda faraz qildikki, ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning gender tenglik tafakkurini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yig'indisi o'quv faoliyatida qo'llanadigan va yuqorida keltirilgan yondashuvlar prinsiplariga muvofiq keladigan o'ziga xos metod va usullarni o'z ichiga olishi kerak. Muammoni sinergetik ko'rishni hisobga olganda, faqat shart-sharoitlarni yaratishgina insonning barcha ichki salohiyatini kashf qilish va uning yaxlit obrazini "o'zi qo'rib chiqishiga" yordam bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Belogurov A.Yu. Modernizasiya prosessa podgotovki pedagoga v kontekste innovacionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. - M.: MAKS Press, 2016. - 116 s.
2. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lif. - Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
3. Ejak E.V. Psixologicheskoe obespechenie professional'nogo razvitiya pedagoga v usloviyah riskov sovremennoego obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. - Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th June, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

-
4. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliv ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-T.: TDPU - 2013. - 256 b.
 5. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovation pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistalar, o'qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o'quv qo'llanma)-T.:2013.-279 b
 6. Makarova.N.S. Didaktika visshey shkoli.monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-e izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.